



## DAVLAT ULUSHI BO'LGAN KORXONALARDAN BYUDJET MABLAG'LARIDAN SAMARALI FOYDALANISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

**Mamadiyorov Farrux Shuxratovich**  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
2-kurs magistri

**Djurayev Davlat Djonibekovich**  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
2-kurs magistri

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Davlat ulushi bo'lgan korxonalaridan byudjet mablag'laridan samarali foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish orqali byudjet mablag'laridan tejamkorlik asosida foydalanish masalalari o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** moliyaviy nazorat, nazorat organlari, byudjet mablag'larini iqtisod qilish, maqsadsiz xarajatlarni oldini olish.

So'nggi yillarda aholining turmush sifatini tubdan yaxshilashga qaratilgan bunyodkorlik ishlari jadal sur'atlar bilan olib borilmoqda. Biznes yuritishning huquqiy asoslari mustahkamlanmoqda va institutsiyaviy mexanizmlari takomillashtirilmoqda, mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish choralari ko'rilmogda.

Shu bilan birga, budjet mablag'larini talon-toroj qilish va ulardan maqsadsiz foydalanish holatlari saqlanib qolmoqda, bu esa olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlarning samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Bozor munosabatlarining bugungi rivoji hamda insofli tadbirkorlik subyektlarini himoya qilish zarurati iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish, "xufiyona iqtisodiyot"ning shakllanish mexanizmlarini, chet el valyutasining nazoratsiz chiqib ketish kanallarini o'z vaqtida aniqlashning shakl va usullarini tubdan qayta ko'rib chiqishni, shuningdek, importni optimallashtirish va milliy tovarlar eksportini rag'batlantirish bo'yicha tizimli ishlarni kuchaytirishni ham talab etmoqda.

Shu munosabat bilan, faoliyati iqtisodiyot rivoji, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, iqtisodiy jinoyatlar va korrupsiyaga qarshi kurashishning zamonaviy voqelikka to'liq javob bermayotgan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq, valyutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamentining vazifalari, funksiyalari va vakolatlarini tubdan qayta ko'rib chiqish zarurati paydo bo'ldi.

Biznesni yuritish va investitsiyalarni jalb etish uchun yanada qulay shart-sharoitlarni yaratish, budjet mablag'larini talon-toroj qilish va ulardan samarasiz foydalanish holatlarining oldini olish, shuningdek, iqtisodiy jinoyatlar va korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini oshirish maqsadida:

➤ O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq, valyutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamenti O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti (keyingi o'rinlarda Departament deb yuritiladi) etib qayta tashkil qilinsin.

➤ O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzurida iqtisodiy va korrupsiyaviy jinoyatlar, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish,



terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirish holatlari bo'yicha tezkor-qidiruv faoliyati, tergovga qadar tekshiruv va surishtiruvni, shuningdek, mazkur jinoyatlar sodir etilishi oqibatida yetkaziladigan iqtisodiy zararining qoplanishini amalga oshiruvchi mustaqil ixtisoslashtirilgan huquqni muhofaza qiluvchi organ;

➤ jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish masalalari bo'yicha maxsus vakolatli davlat organi;

➤ O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq, valyutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamentining huquqlari, majburiyatlari va shartnomalari, jumladan xalqaro shartnomalari bo'yicha vorisi hisoblanadi.

Nazorat boshqarish siklining shakli sifatida qabul qilinayotgan yoki qabul qilingan boshqaruv qarorlarining asoslanganligi va samaradorligini baholash, bu qarorlarning amalga oshirilish darajasini haqiqiy natijalarning o'rnatilgan parametrlari va me'yoriy ko'rsatmalardan og'ish (farq qilish) darajasini aniqlash va salbiy holatlarni bartaraf etishga qaratiladigan boshqaruv qarorlarini qabul qilish maqsadida boshqariluvchi ob'yekt faoliyatini kuzatish, solishtirish, tekshirish va tahlil qilish tizimidir. Professorlar A.V.Vahobov va T.S. Malikovlarning fikricha, barcha iqtisodiy sub'yektlarning (davlat, korxonalar va tashkilotlarning) moliyaviy faoliyati ustidan qonunchilik va ijroiya hokimiyati organlarining turli darajalari, shuningdek maxsus tashkil etilgan muassasalar tomonidan amalga oshiriladigan nazoratga moliyaviy nazorat deyiladi. Bu nazorat, eng avvalo, pul fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish jarayonida moliyaviy-iqtisodiy qonunshilikka rioya etilishi, moliyaviy xo'jalik operatsiyalarining samaradorligini baholash va amalga oshirilgan xarajatlarning maqsadga muvofiqligi ustidan nazoratni o'z ishiga oladi. Boshqacha so'zlar bilan aytganda, moliyaviy nazorat u yoki bu moliyaviy harakat sodir bo'lishining baholashni o'z ichiga olish bilan cheklanmasdan, balki u o'zining analitik yo'nalishiga egal. Demak, moliyaviy nazorat - bu faoliyat yurituvchi xo'jalik sub'yektlarining moliyaviy muomalalarini o'rnatilgan qonun-koidalar doirasida amal qilinishini ta'minlovchi ularning samaradorligini tahlil qiluvchi va ularni kelgusida takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiquvchi mas'ul organlarning aniq maqsadga yo'naltirilgan faoliyati. Moliyaviy nazoratning maqsadi - bu chunchaki faqat nazorat emas, balki uning maqsadi ahvolni to'g'rilash choralari ko'rish, ayrim hollarda aybdorlarni javobgarlikka tortish, etkazilgan zarar uchun tovon undirib olish yoki kelgusida bunday buzilishlarning oldini olish yoxud kamaytirish imkoniyatiga ega bo'lish uchun imkon boricha dastlabki bosqichda qabul qilingan standartlardan chekinishlarni va konun qoidalarining buzilishlarini oldini olish, moddiy resurslarning samaradorligini oshirish va tejab sarflanishini aniqlashdan iboratdir. Moliyaviy nazoratning ahamiyati shundan iboratki, uning yordamida birinchidan, davlat va jamoat tashkilotlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, fuqarolar tomonidan o'z moliyaviy faoliyatlarida huquqiy tartibga rioya etilishini kuzatib borish; ikkinchidan, amalga oshirilayotgan moliyaviy harakatlarning iqtisodiy asoslanganligi va samaradorligini, bu harakatlarning davlat oldida turgan vazifalarga muvofiq kelishini tekshirish amalga oshiriladi.



Bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida moliyaiviy nazoratning maqsad va vazifalari, turlari va shakllari tubdan o'zgardi. Endi u faqatgina jazolash maqsadida emas, balki davlatning o'z vazifalarini bajarish uchun zarur bo'lgan mablag'larning to'liq to'planishi va byudjet mablag'laridan maqsadga muvofiq samarali xarajat qilinishini nazorat qilish maqsadida maslahat va ko'rsatmalar berish kabi vazifalarni bajarmoqda. Bugungi kunda moliyaviy nazorat tizimi o'z tarkibida nazorat qiluvchilar va nazorat qilinuvchilar bilan birga nazoratning turlari, shakllari va usullarini ham jamlaydi. Moliyaviy nazoratning muvaffaqiyatli va samarali o'tkazilishi uning tashkil etilish darajasiga va nazoratning turlari, shakllari va uni o'tkazishning metodlariga bog'liq. Bugungi kunda byudjet jarayonining barcha bosqichlarida byudjet intizomiga rioya qilinishi ustidan doimiy va samarali nazoratni ta'minlash dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Zero, mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy-ijtimoiy islohotlarni moliyaviy ta'minlashda byudjet xarajatlarning samaradorligini oshirish, ularning aniq maqsadli va manzilli bo'lishiga erishish eng muhim vazifalardan biri sanaladi. Bu maqsadga erishish uchun byudjet intizomiga rioya etilishini yanada kuchaytirish, byudjet mablag'larining belgilangan maqsadlarda sarflanishi ustidan qattiq nazoratni ta'minlash juda muhimdir. Byudjet mablag'laridan foydalanish ustidan samarali davlat nazoratini amalga oshirishda moliyaviy nazorat organlar tizimi faoliyatini ham takomillashtirib borish muhim ahamiyatga egadir. Mamlakatimizda samarali moliyaviy nazorat tizimi yo'lga qo'yilganligi, byudjet mablag'laridan maqsadli, tejamli foydalanishni ta'minlash maqsadida davlat moliyaviy nazorati bosh boshqarmasi va uning hududiy nazorat-taftish boshqarmalari tashkil etilganligiga qaramasdan, moliya organlari va byudjet muassasalari faoliyatida ba'zan byudjet mablag'larini noto'g'ri sarflash, noqonuniy xarajatlarni amalga oshirish, hamda byudjet mablag'larini o'zlashtirish holatlari barham topmayapti. Fikrimiz tasdig'i sifatida, byudjet tashkilotlarida amalga oshirilayotgan taftish va tekshirishlarda aniqlanayotgan quyidagi tizimli ravishdagi qoidabuzilishlar ko'rsatib o'tishimiz mumkin:

- byudjet muassasalari tomonidan xarajatlar smetasini rejalashtirishda amaldagi me'yoriy xujjatlar talablari chuqur o'rganilmaganligi natijasida byudjetdan ortiqcha mablag' olish;

- umumta'lim muassasalarida tarifkatsiya jadvalini tuzishda vakant soatlarga yuqori toifali tarif razryadlari qo'llanilishi natijasidan byudjetdan ortiqcha mablag' olish;

- turli sabablar bilan o'tilmagan dars soatlari hisobidan iqtisod bo'lgan mablag'larni o'z vaqtida (hisobot davri yakuni bilan) tegishli byudjetga qaytarilmasligi;

- vakant saqlanayotgan shtat birliklari hisobidan iqtisod bo'lgan mablag'larni o'z vaqtida (hisobot davri yakuni bilan) tegishli byudjetga qaytarilmasligi;

- mehnatga haq to'lashning Yagona tarif setkasi razryadlarini va koeffitsiyentlarini hamda ustama to'lovlarini noto'g'ri qo'llash hisobiga ortiqcha xarajatlarga yo'l quyish;

- ishlamaydigan xodimlarning plastik kartochkalariga mablag' o'tkazib berish;

- muassasa rahbarlari o'z nomlariga va yaqin tanishlari (xomtavoqlari) nomiga ochilgan plastik kartochkalarga byudjet mablag'larini ortiqcha o'tkazib o'zlashtirish;

- pul to'lov varaqalarini sohtalashtirish orqali o'zlashtirish;



- qurilish ta'mirlash ishlariga ajratilgan mablag'larni hisobotlarga bajarilmagan ishlarni qo'shib yozib o'zlashtirish;
- olinmagan tovar moddiy boyliklar uchun byudjet mablag'larini yo'llash;
- tovar-moddiy boyliklarni qimmat narxlarda yetkazilishi, shartnomada ko'rsatilgan tovar - moddiy boyliklar o'rniga boshqa xildagi mahsulotlarni kirim qilinishi;
- tovar moddiy boyliklar kamomadi va o'zlashtirilishi;
- oziq-ovqat, dori-darmon, yoqilg'i-moylash va boshqa mahsulotlarini xarajatga chiqarish normalariga rioya qilmaslik;
- byudjet muassasalarida ishlovchi xodimlar soxta diplom va malaka toifalari guvohnomalari bilan hamda nostrifikatsiyadan o'tkazilmagan chet el ta'lim muassasalari diplomlari bilan faoliyat yuritishlari va boshqa holatlar.

Mazkur maqolamizda ishimizda yuqorida tahlil qilingan ma'lumotlar asosida, O'zbekiston Respublikasida nazorat ishlari samaradorligini ta'minlash, hamda byudjet mablag'laridan foydalanish yuzasidan samarali moliyaviy nazoratni amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari yuzasidan quyidagi asosiy xulosa, taklif va tavsiyalarimizni aks ettiramiz:

- davlat siyosatiga mos ravishda moliyaviy nazorat tizimini isloh qilib borishni ta'minlash;
- moliyaviy nazorat qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun ko'zda tutilgan natijaga erishishni ta'minlashga xizmat qilishi lozim;
- moliyaviy nazorat organlarining byudjet xarajatlarini optimallashtirishga qaratilgan yuqori samarali faoliyatini rag'batlantirish mexanizmini takomillashtirish;
- moliyaviy nazorat sohasida ilmiy-tadqiqot faoliyatlarini amalga oshirish;
- moliyaviy nazorat tizimi organlari faoliyatini muvofiqlashtirishning me'yoriyhuquqiy asoslarini yanada mustahkamlash va takomillashtirish;
- nazorat organi tizimi bilan turli tashkilotlar (tijorat banklari, soliq, bojxona organlari, tovar xom-ashyo birjalari) o'rtasidagi axborot almashish tizimini yanada muvofiqlashtirish;
- huquq tartibot organlarining moliyaviy xato va kamchiliklarga yo'l qo'ygan mas'ul shaxslarga nisbatan o'zaro ta'sir etish mexanizmini takomillashtirish;
- byudjet tashkilotlarida ichki va jamoatchilik moliyaviy nazorat faoliyatlarini faollashtirish;
- xorijiy davlatlarda byudjet mablag'laridan foydalanish yuzasidan nazorat tadbirlarini amalga oshirish mexanizmini va nazorat-taftish organlari faoliyatini kuzatish va tajribalarini o'rganish, so'ngra ularning ijobiy yutuqlari va natijalarini milliy moliyaviy nazorat tizimimizga tadbir etish lozim.

## Foydalanilgan adabiyotlar



1. Т.Маликов, Н.Ҳайдаров. Бюджет: тизими, тузилмаси, жараёни. 2007
2. Т.С. Маликов, Н.Х. Хайдаров. Финансы: государственные финансы. Учебное пособие. Экономика и финансы. Ташкент. 2009
3. Низомиддин Ҳайдаров, Фурқат Ҳалимов. Жисмоний тарбия ва спорт муассасалари ва уларнинг мамлакат Ижтимоий-иқтисодий ҳаётида тутган ўрни. Иқтисодиёт ва таълим. 2020/11/26
4. Низамиддин Хайдаров. Роль таможенного дела в ускорении межгосударственных экономических отношений. Техничко-технологические проблемы сервиса, 2019
5. Н.Х.Хайдаров. Роль иностранных инвестиций в финансовом оздоровлении Узбекистана. Финансы и кредит, 2001
6. Ҳайдаров Н.Х. Молия: умумдавлат молияси. Т.: Иқтисод-молия, 2009
7. Н.Хайдаров. Солиқлар ва солиққа тортиш масалалари. Ўқув қўлланма. Тошкент: Академия, 2007